

POSHSHOXO'JA HIKOYATLARI TAHLILI. “ GULZOR ” ASARI TALQINIDA.

Musajonova Yulduz Esojon qizi
Farg'ona davlat universiteti
filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi.

Anotatsiya: Bu maqolada Poshshoxo'janing “ Gulzor ” asari badiiy tahlil qilinadi. Undagi hikoyatlar mazmuni, undagi ramziyliklar, uning badiiy-estetik funksiyasi ochib beriladi. Asarda jamiyat hayoti, insoniy munosabatlar, axloqiy-ruhiy kechinmalar tasviri hamda obrazlar sistemasining o'ziga xosligi yoritiladi. Asarning ma'naviy-ma'rifiy g'oyalari, tarbiyaviy ahamiyati va o'quvchi ongiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Poshshoxo'ja, “ Gulzor ”, podshoh, Iskandar, devona, adolat, sulton, himmat, taxt, masnaviy.

Poshshoxo'ja Nisoda tug'ilgan. Hayoti podshohlar huzurida o'tgan. Uning yashagan davri shayboniylar hukmronligiga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham asarlarida humkdor obrazi yetakchilik qiladi. U Shayboniixonning o'g'li Temur Sultonga atab “ Miftoh ul-adl ” (“ Adolat kaliti ”), Kistan Qaro Sultonga bag'ishlab “ Gulzor ” asarlarini yozadi. Bu asarlarda axloqiy-didaktik xususiyatga ega bo'lgan fiqolarni sharhlash uchun mashhur podshohlar haqida turli hikoyat va masallar keltirilgan. Ularda davlatni boshqarish, raiyat bilan munosabat masalalari, insofli va adolatli podshoh obrazi tasvirlangan.

“ Gulzor ” dagi birinchi hikoyat Iskandar Zulqarnayn va devona hikoyati. Bu hikoyatda bir devona podshohni o'z aql-farosati bilan lol qoldiradi, unga podshoh ham, gado ham bir xil ekanini uqtiradi. Bu hikoyatdan ko'rinadiki, har bir inson Alloh huzurida bir xil. U podshoh bo'ladimi, gadomi. Ba'zida podshohlar bilmaydigan narsani oddiy bir devona biladi, xuddi bu hikoyatdagi kabi. Bu hikoyatda Xoja podshohman deb oddiy fuqaroni o'zingdan past ko'ra olmaysan, har bir banda tengdir. Sen o'zingga qanday nazar bilan qarasang, har bir fuqaroga xuddi shunday nazar bilan qarashing kerak. O'lgandan keyin mansabing haqida emas, faqatgina qilgan amallaring haqida so'ralasan demoqchi. Devona nutqidagi to'rt narsada ham ramziylik bor. Boylikni ham, yoshlikni ham, sog'likni ham, hayotni ham faqatgina Alloh bera oladi. Ba'zi bir podshohlar men humkdorman, hamma narsa qo'limdan keladi deb o'ylaydi. Podshohlarning ham qo'lidan kelmaydigan narsalar bor. Shuning uchun ham har bir insonni teng bilish kerak. Bu hikoyatda shu kabi g'oyalar yotadi. Bunga xulosa qilib, “Podshoh ham, gado ham bir xil tuproqdan yaralgan, farqi- faqat amal va niyatdadir” deya olamiz. Podshoh xalqiga o'z amali bilan ibrat bo'lishi kerak. Podshoh qanday

bo'lsa, xalqi ham xuddi shunday bo'ladi. Xoja bejizga bu hikoyatni birinchiga qo'ymagan. Ko'plab podshohlar shundan ibrat olishini xohlagan.

Yana bir hikoyat Malikshoh va bir ayol haqida. Bunda podshoh o'z adolati bilan hidoyatga erishgani yozilgan. Bu hikoyatda ko'rinib turadiki, podshoh har bir fuqaroga bir xil adolatli bo'lishi kerak. U o'z mulozimlarini zulm qilgani uchun jazolay oladigan darajada adl bo'lishi lozim. Chunki, podshoh har bir fuqaro uchun javobgar. Uning har bir bergan qarori barcha xalq uchun manfaatli bo'lishi kerak. Uning qilgan amallari, bergan amrlari uning hayotini belgilab beradi. Bu hikoyat bir ko'rishda faqat podshohlar uchun yozilganday ko'rinadi. Aslida bu har bir insonga tegishli, chunki faqat podshohlar emas, xalq ham adolatli bo'lishi kerak. Insonlar ham ham bir masalada adolat bilan ish ko'rishi lozim. Bu hikoyat podshohning bir kuni haqida, aslida bunday vaziyatlar juda ham ko'p bo'ladi. Har bir vaziyatda xuddi shunday adl qaror qabul qilish uning butun hayotini belgilab beradi. Sirot ko'prigidan qanday o'tishimiz ham xuddi shunday vaziyatlarda o'zimizni qanday tutushimizga bog'liq. Bu hikoyatda podshohning jannatda yurganini xalq tushida ko'radi. Xoja bu hikoyatida tush motividan foydalangan. Bundan ko'rinadiki, u xalq o'g'zaki ijodiga ham bee'tibor bo'lmagan. Undagi motivlarni hikoyatlariga ko'chirgan.

Keyingi hikoyat esa pashsha va yel haqida. Bunda Sulaymon alayhissalomni qanday adolatli bo'lganlarini bilsak bo'ladi. Sulaymon alayhissalom orqali zamoni podshohiga ishora qilgan. Har bir hikoyat ichida ramziylik bor. Bunda pashsha va yel ham ramziy obraz. Ba'zan xuddi shunday vaziyatlar bo'ladi, o'zini haq deb shikoyat qiladi va u inson bilan yuzma-yuz ko'rishganda qochishga shaylanadi. Podshoh shunday vaziyatda ikkala tomonni eshitib keyin qaror berishi lozim. Chunki har bir tomon o'zini oqlash uchun turli yolg'onlar to'qishi mumkin. Shu sababdan ham har ikki tomonni bir vaqtda eshitib juda ham muhim. Hikoyatimizda ham Sulaymon alayhissalom bir tomonni o'zi bilan qaror qabul qilmaydi. Boshqa tomonni ham eshitishni maqul ko'radi. Haqiqat yuzaga chiqishi uchun xuddi shunday qilinishi kerak. Hikoyat so'ngida g'azal beriladi:

Bo'l adolatli masnadi uzra Sulaymoni zamon,

Toki sandin mustafiz o'lg'ay bari ahli jahon.

Unda har bir podshohga Sulaymon kabi bo'lishga da'vat etadi. U kabi adolatli shoh bo'lsangina xalqing sendan rozi bo'ladi, noming olam ichida doston bo'ladi. Bunday yakunlash Xojaning har bir hikoyatida mavjud. Har bir hikoyatni g'azal, masnaviy yoki qit'a bilan yakunlaydi. U hikoyat mazmuniga nisbatan xulosa vazifasini o'taydi. Bunday yakunlash, asar mazmuniga o'zgacha bir mazmun, xulosa bergan. Bunday yakunlamasa ham bo'lardi, lekin u aynan shunaqa yakunladi. Chunki xalq bundan ibrat olishi kerak edi. Xalqning yuragiga kirib borish oson emas. Xoja shunday o'zgacha usul bilan xalqning e'tiborini torta oldi. Adolat masalasi ham bir zamon uchun juda muhim masala. U davlatni ushlab turadi. Adolatli podshohi bo'lmagan davlat

tanazzulga uchraydi. Xoja ham o'z asarida davlatning gullab yashnashi uchun podshohlarga, humkdorlarga dasturilamal yozadi.

Asardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir podshoh, har bir fuqaro har qanday vaziyatda adolat bilan qaror qabul qilmog'i lozim. Hayotimizda turli xil va ziyatlar bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatdan faqat o'zimizni emas, butun jamiyatga foyda keltiradigan qarorlar berishimiz kerak. Asarda xuddi shunday vaziyatlarda podshohlar tutgan yo'llar yoritib berilgan. Bu bilan ikki xil narsani aytmog'chi. Birinchisi hamma podshoh xuddi shunday adolatli, fuqarolarni o'ylaydigan bo'lishi kerak degan bo'lsa, yana bir tomondan butun jamiyatni adolatli bo'lishga da'vat etadi. Yurt gullab yashnashi uchun butun xalq adolat bilan ish tutushi kerak deydi. Asar nomi bejizga " Gulzor " deya nomlanmagan. Bunda ham ramziylik bor. Birinchisi asarda ta'kidlanganiday u barcha yaxshi xislatlarni jamlab, gulzor yaratdi. Undan barcha bahramand bo'lsin. Keyingisi esa ramziy ma'noda: agar bu asardagi barcha yaxshi fazilatlarga amal qilib hukmdorlik qilinsa, uning davlati Gulzor kabi gullab yashnaydi. Bu asar bizning dasturilamalimiz bo'lishi lozim. Shundagina bizning hayotimiz ham gullab yashnaydi. Biz bu asar orqali Xojaning qanday shaxs ekanini ko'rsak bo'ladi. U podshoh yonida xizmat qilib, faqatgina xalqni o'ylagan. Ba'zi bir mulozimlar bunday holatda faqat o'zini manfaatini o'ylaydi, fuqarolar bilan esa umuman ishi bo'lmaydi. Ammo bizning Xoja unday insonlardan emas edi. Doimo podshohni adolat qilishga, xalq manfaati uchun ish ko'rishga da'vat etadi. Hikoyatlarni o'qish jarayonida esa uning qanday mahoratli ekanini ko'ramiz. Hikoyatlar juda sodda tilda yozilgan. Hamma birdan tushunib o'qiy oladi. Umuman murakkab, tushunarsiz so'zlardan foydalanmagan. Shuning uchun ham bu asar hozirgacha yetib kelgan. Asar yashashi uchun vaqtlarni yenga olishi kerak. Mana bu asar qancha asrlarni yenga oldi. Buning sababi, albatta, yozuvchining mahoratida.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanxoja Nisoriy, Muzakkiri ahhob, T.,1983.
2. " Miftoh ul-adl va Gulzor " dan, T., 1962.
3. Hamidjon Xomidiy; Mm Mahmud Hasaniy. Mashriqzamin hiikmat bo'stoni. Toshkent: " Sharq" nashriyotmanbaa konserni,1997-yil, 251-bet.
4. Ahmad Muhammad. Sharq haqni topdi..., Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2006, 124-bet.